

## МЕХНАТ БОЗОРИНИНГ МОHIYATI VA UNING SHAKLLANISH OMILLARI

**Safarov Anvar Rustamovich**

Pedagogik innovatsiyalar instituti mustaqil izlanuvchisi

**Abstract:** In the article, the author talks about the nature of the labor market and its specific features, the development of a safe and controlled environment for training the graduate to improve his professional skills, as well as the creation of a reliable method of evaluating professional education. Therefore, in the author's opinion, the preparation of graduates who are high in the labor market for professional education is the main way to comply with the best educational standards and ethical principles in the educational process. The article describes the theoretical and practical knowledge of the author about the history and present factors of formation of the labor market.

**Key words:** Vocational training, labor market, hired labor, professional education; adaptation.

**Annotatsiya:** Maqolada muallif mehnat bozorining mohiyati va uning o'ziga xos xususiyatlari, bitiruvchini kasbiy qobiliyatini oshirishni o'rgatish uchun xavfsiz va boshqariladigan muhitni rivojlantirish, shuningdek, professional ta'limni baholashning ishonchli usulini yaratish haqida so'z borgan. Shu sababli muallifning fikricha professional ta'lim uchun mehnat bozorida yuqori bo'lgan bitiruvchilarni tayyorlash ta'lim jarayonida eng yaxshi ta'lim standartlari va axloqiy tamoyillarga mos keladigan asosiy yo'ldir. Maqolada mehnat bozorining shakllanish omillarining tarixi va buguni haqida muallifning nazariy va amaliy bilimlari bayon etilgan.

**Kalit so'zlar:** Kasbiy tayyorgarlik, mehnat bozori, yollanma mehnat, professional ta'lim; moslashtirish.

**Аннотация:** В статье автор говорит о природе рынка труда и его особенностях, развитии безопасной и контролируемой среды обучения выпускника для повышения его профессиональной квалификации, а также создании надежного метода оценки профессиональное образование. Поэтому, по мнению автора, подготовка выпускников, занимающих высокие позиции на рынке труда, к профессиональному образованию является основным способом соблюдения лучших образовательных стандартов и этических принципов в образовательном процессе. В статье изложены теоретические и практические знания автора об истории и современных факторах формирования рынка труда.

**Ключевые слова:** Профессиональное обучение, рынок труда, наемный труд, профессиональное образование; приспособление.

**Kirish.** Bugungi kun iqtisodiyotining oldiga turgan dolzarb muammolardan biri mehnat bozorini shakllantirish va samarali rivojlantirishdir. Tadqiqotchi olimlarning takidlashicha, bozor iqtisodiyotida mehnat bozori yollanib ishlashga qodir kishilarning barchasini: ham yollanma mehnat bilan band bo‘lganlar, ham band bo‘lmaganlarni qamrab oladi. A.A.Nikiforova esa boshqa umumiyligi ta’rifni taklif etadi: «Mehnat bozori rivojlanishining darajasi va bozorda ishtirok etuvchi kuchlar: tadbirkorlar, mehnatkashlar va davlat o‘rtasida ma’lum davrda erishilgan manfaatlar balansini aks ettiruvchi ijtimoiy munosabatlar tizimi sifatida vujudga kelgan». Ba’zi bir tadqiqotchilar mehnat bozorini ish haqi va daromadlarning erkin harakati orqali mehnatga talabni va ishchi kuchi taklifini o‘zini-o‘zi tartibga soluvchi mexanizm sifatida talqin qiladilar. Boshqa tadqiqotchilarning fikricha, mehnat bozori ish beruvchilar va yollanib ishlashni xohlovchilarni bevosita kelishuvi orqali talab va taklifni qanoatlantirish uchun sharoitlar yaratadi va ishchi kuchini xarid qilish-sotish jarayonlarini bevosita tartibga solmaydi.

Mehnat bozori-ish kuchi oldisotdi qilinadigan bozor. Mehnat bozorining ishtirokchilari ishga yollovchilar, ishga yollanuvchilar va ular o‘rtasidagi turli vositachilar hisoblanadi[1]. Turli vositachi firmalar, tashkilotlar va agentliklar Mehnat bozorining infratuzilmasini tashkil etadi. Ish kuchi maxsus tovar sifatida uning sohibi tomonidan bozorga taklif etiladi. Ishga yollovchilar Mehnat bozoriga talab bilan chiqadi. Ish kuchining oldisotdisi bevosita haridor bilan sotuvchi o‘rtasida to‘g‘ridan to‘g‘ri yoki vositachilar ishtirokida yuz berishi mumkin. Bu ishni mehnat birjasiga yoki ish topib beruvchi firmalar bajaradi. Ish kuchining oldisotdisi mehnat bitimi shaklida rasmiylashtiriladi. Mehnat bozorida ish kuchini sotuvchi bilan uni oluvchi o‘rtasida mehnatning kelishilgan narxi-ish haqidir[3].

**Muhokama.** Mehnat bozorining iqtisodiy tushuncha sifatidagi mohiyati uning turli ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardagi xususiyatlari, ishchi kuchini takror ishlab chiqarish, taqsimoti, o‘zlashtirish va foydalanish mexanizmi, u yoki bu jamiyat iqtisodiy munosabatlari tizimida ushbu tushunchaning roli va ahamiyati klassik iqtisodiyot nazariyasini namoyandalari, hamda xorijiy mamlakatlar mashhur iqtisodchi olim-larining tadqiqot predmeti bo‘lgan. A.Smit va D.Rikardolardan to J.Keyns, M.Fridman, Ya.Kornai va ko‘p sonli boshqa iqtisodchi olimlar tomonidan o‘rganilgan. Mehnat bozori tushunchasiga rossiyalik va ko‘pgina o‘zbek olimlarining ham ta’riflari mavjud. S.YU.Roshshinning ta’rifiga ko‘ra, “mehnat bozori-mehnatga talab va mehnat taklifini o‘zaro harakatlantiruvchi, bozor mexanizmi va belgilari asosida mehnat resurslarini taqsimlashdi. P.E.Shlender va professor Y.P.Kokinning ta’rifiga ko‘ra:” mehnat bozori-bozor iqtisodiyotining tarkibiy qismi bo‘lib,yollanma ishchi kuchi va ish beruvchilar manfaatlari kelishilgan jamiyat aloqalari ijtimoiy tizimini bildiradi.

Mehnat bozori-bu birinchidan, ishchi kuchi talabi va taklifi orasida iqtisodiy aloqalar yig‘indisi, ikkinchidan, turli xil iqtisodiy va ijtimoiy manfaatlar va funksiyalar to‘qnashadigan joy, uchinchidan korxonalar nuqtai nazaridan, alohida korxona va uni ishchilarini o‘zaro aloqa maydoni, firma miqyosida yangi ish joyiga o‘tishni o‘ylovchi haqiqatdagi va mavjud bo‘lgan ishchilar” B.M.Genkinding ta’rifiga ko‘ra:”mehnat bozori, eng avvalo, ish beruvchi va ishga yollanganlar manfaatlarining kelishuvi mexanizmi hisoblanadi. Undan tashqari mehnat bozorida ijtimoiy aloqalar boshqarish zarurati hosil bo‘lib, davlat manfaatlari belgilanadi”. L.Maksakova “Mehnat bozori” tushunchasining o‘rniga “ishchi kuchi bozori” tushunchasini qo‘llashni zarur, deb hisoblaydi[5].

“Mehnat resurslari bozori” tushunchasi qo‘llansa, yanada to‘g‘riroq bo‘ladi, deydi. Tadqiqotchi. A.Pavlenkov ta’kidlaydiki, bozor iqtisodiyotida mehnat bozori yollanib ishlashga qodir kishilarning barchasini ham yollanma mehnat bilan band bo‘lganlar ham band bo‘limganlarni qamrab oladi. A.A.Nikiforova esa boshqa umumiy ta’rifni taklif etadi:”Mehnat bozori rivojlanishining darjasini va bozorda ishtirok etuvchi kuchlar: tadbirkorlar, mehnatkashlar va davlat o‘rtasida ma’lum davrda erishilgan manfaat-lar balansini aks ettiruvchi ijtimoiy muno-sabatlar tizimi sifatida vujudga kelgan”. I.S.Maslovaning ta’rifi bo‘yicha mehnat bozori-bu o‘suvchi tizim, unda mulkchilik sub’ektlari ishchi joylari va ishchi kuchi takliflari, xodimga va “yollanma ishga talab hajmi, tarkibi va nisbatini shakllantirib, ishlab chiqarish omillari (mehnat vositalari va ishchi kuchi)ga o‘zaro ta’sir etadi”. Mehnat bozori mavjud, ammo “kesik, shakli o‘zgartirilgan ko‘rinishda, buning ustiga har narsani o‘z ichiga oladigan xarakterga ega bo‘lmay, balki mehnat munosabatlarining faqat bir qismini qamrab oladi”. Q.Abdurahmonov va F.Mamaraximovning ta’rifiga ko‘ra, “Mehnat bozori deyilganda ishchi kuchini sotish, sotib olish va undan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar majmuasi tushuniladi”[4]. O.Abdurahmonovlarning ta’rifiga ko‘ra, “mehnat bozori ishchi kuchini sotuvchi va xaridori, uning qiymatini belgilaydigan va taklif etiluvchi mehnat xizmat-larini taqsimlaydigan muhitni tavsiflash imkonini beradigan kategoriya, analitik konstruksiya, deb tushunilishi ham mumkin”. “Mehnat bozori” tushunchasi ishchi kuchi xaridi va ishlatalishini ham o‘z ichiga oladi, ya’ni u ishchi kuchi va ishchi o‘rinlari bozoridan iborat bo‘ladi.

**Natija.** Mehnat munosabatlari ishchi kuchi bozori bilan bir vaqtida ishchi o‘rinlari bozorining ham mavjud bo‘lishini taqozo etadi, chunki bozor iqtisodiyoti sharoitida har ikkala bozor shakli mavjud bo‘lgandagina mehnat jarayonini amalga oshirish mumkin. Mehnat bozorining o‘ziga xosligi shundaki, ishchi kuchini pulga ayirboshlash oldi-sotdi bitimi tuzilgandan keyin, ma’lum ishlab chiqarish jarayoni amalga oshadi.

demak, ishchi kuchi avval iste'mol etilib, so'ngra uning haqi to'lanadi. Mehnat bozori ishchi kuchini sotish, sotib olish va undan foydalanish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlар majmuasidir. ishchi kuchi bozori mehnatga layoqatli aholining mehnat qilishga bo'lgan layoqatlarini taklif qilish sohasini topish xohish-istaklari yig'indisi sifatida shakllansa, ishchi o'rirlari bozori korxona va tashkilotlarning ishchi kuchiga bo'lgan jami ehtiyojlari sifatida tashkil etiladi. Biroq ishchi kuchi bozori o'zining ijtimoiy-iqtisodiy tabiatiga ko'ra, eng avvalo, aholining ishchi o'rirlariga bo'lgan ehtiyojlarini ifodalaydi[2]. Bu ehtiyojlarning qondirilishi esa, uning mehnat salohiyatidan samarali foydalanish hamda samarali bandlikni shakllantirili-shining asosi hisoblanadi. Shuni ta'kidlash joizki, "mehnat bozori" tushunchasining ijtimoiy-iqtisodiy mazmuni va uni tarkibiy qismlarining sistematik tadqiqoti mazkur bozorni o'tish davrida bajariladigan asosiy vazifalarni ham aniqlashga imkon beradi:



**Xulosa.** Mehnat bozorida amalga oshirilayotgan faol bandlik siyosati – bu nafaqat aholining qonuniy, munosib va barqaror bandliga (daromadga ega bo'lish) ko'maklashishga shart-sharoitlar yaratish, inklyuzivilikni ta'minlash balki inson kapitalini rivojlanterish, talab va taklif asosida o'z bilim, ko'nikma, kasbiy malakalarini, raqobatbardoshliklarini oshirish, o'zgarishlarga moslashish, o'zini o'zi band qilish va tadbirkorlikka jalb qilish hamda o'z salohiyat va qobiliyatlarini namoyon qilish va ulardan to'la foydalanishga barcha imkoniyatlarni yaratishni o'z ichiga oladi[6].

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'llimizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-kitob. Toshkent.: O'zbekiston, 2018.
2. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir.
3. Mirziyoyev Sh.M. "Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kyerak". –T.:O'zbekiston, 2017.
4. Khasanovich, Gaffarov Laziz. "POSSIBILITIES OF THE INFOCOMMUNICATION BASE IN TEACHING ON DIFFERENTIATED EDUCATIONAL PROGRAMS IN PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS." *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities* 2.1.5 Pedagogical sciences (2022).
5. Khasanovich G. L. POSSIBILITIES OF THE INFOCOMMUNICATION BASE IN TEACHING ON DIFFERENTIATED EDUCATIONAL PROGRAMS IN PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS //Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities. – 2022. – T. 2. – №. 1.5 Pedagogical sciences.
6. Khasanovich,G.L. (2022). POSSIBILITIES OF THE INFOCOMMUNICATION BASE IN TEACHING ON DIFFERENTIATED EDUCATIONAL PROGRAMS IN PROFESSIONAL EDUCATIONAL INSTITUTIONS. *Berlin Studies Transnational Journal of Science and Humanities*, 2(1.5 Pedagogical sciences)